

## ALISHER NAVOIY SHARQ ADABIYOTI NAZARIYOTCHISI SIFATIDA

**Abdurasul ESHONBOBOEV,**

O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi  
Adabiyot san'atmuzeyining bo'lim mudiri

**Abstract:** *This article deals with the poetic work and the critical literary genre created by Alisher Navai of the XX century in Herat. Navai's creation on the literary critique genre has presented a new tendency in analyzing the literary works of his contemporaries.*

*For instance, Navai's "Majalis un-nafais" is a critical literary work devoted mostly to analyzing of scholars' works written in Persian. The great poet invents two types of critical genre in the Islamic literary world. The author further examines Navai's critical methodology as a unique work of art presenting traditional themes and genres. As a result, he became a pioneer of the creative methodology in the Persian literary world.*

**Key words:** *Alisher Navai, critical methodology, poetic genre, genre, divan, literary process, founder of the literary theory*

Buyuk adib merosining salmoqli qismini adabiy-tanqidiy mulohazalari ni o'zida jamlagan asarlar tashkil qiladi. O'tgan XX asrning suronli kechgan vaziyatiga qaramay, navoiyshunoslikda shoirning bu boradagi ishlari o'rganilgan. Biz bu o'rinda navoiyshunos A.Hayitmetovning "Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari" monografiyasini nazarda tutamiz. Taniqli olim Navoiyning barcha asarlari sahifalaridan (ham epik, ham lirik) badiiy asar, ijodkor, adabiy mahorat, zamondoshlari hamda salaf lari asarlari bilan aloqador fikr-mulohazalarini qidirib topib, baholagan, tahlil qilgan, munosabat bildirgan. Biroq har qanday fan, jumladan, navoiyshunoslik ham rivojlanar ekan avvalgi tadqiqotlarga aniqlik kiritish, oldin diqqat qaratilmagan yoxud kam

e'tibor berilgan jihatlarni yangi topilgan faktlarga tayanib talqin qilishga, qayta baholashga ehtiyoj sezadi. Shu sababli biz shoir adabiy-tanqidiy qarashlarini nafaqat o'zbek adabiyoti doirasida, balki Sharq adabiyoti sathida tadqiq etish yuzasidan ayrim fikrlar bilan o'rtoqlashamiz.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning adabiy qarashlari faqatgina "Majolis un-nafois" bilan cheklanmaydi, aksincha, barcha asarlari matnida mavjud. Yirik so'z san'atkorining qarashlarida davr adabiy-madaniy hayotining barcha yetakchi tendensiyalari bo'rtib turadi va ularni o'rganish muayyan davr estetik prinsiplarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'z vaqtida Maqsud Shayxzoda "Mahbub ul-qulub"dan joy olgan Navoiyning adabiyot

haqidagi mulohazalari yuzasidan shunday yozgan edi: "Adabiyotning xususiyati, mazmuni ham vazifasi haqida bag'oyat ma'nodor bir ta'rif Navoiyning she'riyatga qarashini to'g'ridan-to'g'ri va ochiqdan-ochiq ifodalaydi. Navoiy ta'biricha shoirlarning ishi maoniy xazoinidin javohir termog va el fayzi uchun nazm silkig'a vazn bermog"dir. Bu kichik bir ta'birdagi ensiklopedik chuqur ta'rifga qaralsin: 1. Poeziyada ma'no va mazmun asosida ("maoniy xazoinidin javohir termog"); 2. Bu mazmun va ma'no ma'lum va muntazam bir qolipda shakllanishi kerak ("Nazm silkiga vazn bermog"); 3. *Poeziyadan maqsad xalqqa, elning foydasiga xizmat qilishdir* ("el fayzi uchun") [Shayxzoda M., 1972: 195].

Ko'rinib turibdiki, shoir adabiyotning ijtimoiy vazifasini jiddiy tushungan va butun ijodi davomida unga amal qilgan. Bundan tashqari, shoir badiiy asarga, muallifga baho berar ekan, birinchi navbatda uning ijtimoiy ahamiyatiga diqqatni qaratadi va bu haqda A.Hayitmetov shunday yozadi: "Navoiy o'z zamondoshlaridan hech qanday ijtimoiy mazmunga ega bo'lmagan she'rlar yozuvchi Osafiy, Sog'ariy, Xurramiy, Qobiliy, Bovardiy kabi o'nlab shoirlarni o'z tazkirasida *qattiq tanqid qiladi*, ularni xalq oldida xizmati hamda obro'si yo'q ekanligini so'zlaydi" [Hayitmetov A., 1959: 84]. Albatta, bundan Navoiy badiiy asarning faqat ijtimoiy vazifasiga ko'ra baho bergan, degan xulosa qilmaslik kerak. Shoir badiiy asarning boshqa zaruriy komponentlariga ham jiddiy e'tibor qaratgan: badiiy mahorat, adabiy dalillash, (motivirovka) vazn, qofiya kabi.

Biz har qanday genial asar ham o'qildizlari bilan uzoq o'tmishga borib taqalishini va o'z bag'rida o'tmish qadriyatla-

rini avaylab saqlashini hamda muayyan davrning hosilasi ekanligini, matnda esa yaratilgan zamonning murakkab manzarasi u yoki bu darajada aks etishini keyingi paytlarda negadir unutib qo'ydik. Shu o'rinda XX asrning mashhur filologi va faylasufi M.Baxtinning beixtiyor quyidagi so'zlari yodga tushadi: "*Adabiyotning buyuk asarlari asrlar davomida tayyorlanadi, ularning yetilish davrida esa uzoq va murakkab yetilish jarayonining sarxil mevalari terib olinadi*" [Baxtin M., 2003: 6].

Demak, Alisher Navoiy ijodiyoti uzoq davom etgan adabiy-madaniy taraqqiyotning samarasi bo'lib, buyuk shoir na faqat turkiy adabiyotning, balki forsiy adabiyotning ham eng ilg'or an'alarini o'z ijodida sintez qila oldi. Shu ma'noda shoirning adabiy-tanqidiy mulohazalari bevosita fors adabiyotiga ham daxldordir. Biroq o'tgan davr mobaynida adib ijodi, adabiy-tanqidiy qarashlari asosan o'zbek adabiyoti doirasida tadqiq qilindi va biz buni navoiyshunoslik tarixidagi tabiiy bosqich deb bilamiz. Shu bilan birga, to'plangan katta faktik material bugungi adabiyotshunoslikning yutuqlariga tayangan holda falsafiy idrok etilishi, qayta baholanishi shart.

Shoir "Majolis un-nafois"da keltirgan, ijodiga baho bergan shoirlarning aksariyat qismi forsiy tilli ijodkorlardir. Navoiy salaflari ijodiy merosidan yaxshi xabardor bo'lgan hamda ularga tanqidiy ko'z bilan qaragan. Masalan, u "Majolis un-nafois" ning kirish qismida avvalgi tazkiralarda (forsiy tildagi) zamondosh shoirlarga nisbatan kam o'rin ajratilganini o'rinli ko'rsatib, o'z davri ijodkorlariga asosiy diqqatni qaratdi. Qizig'i shundaki, forsiy tazkiralarni janr evolyusiyasini o'rgangan rus olimlari A.N.Ardashkinova va M.L.Reysner

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” hamda Jomiyning “Bahoriston” asarida shoirlar hayotidan olingan lavhalar, rivoyatlar, ko’ngilochar latifalar filologik tahlilga nisbatan ustunlik qilishini hamda zamondosh ijodkorlarga kam o’rin ajratilganligini ta’kidlab ko’rsatganlar [Ardashnikova A., Reysner M., 2016: 7]. Navoiyda esa, aksincha, ijodkorga nisbatan aniq munosabat, vazmin tahlil yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, shoir tazkirasi bir asr davomida forsiy tilga uch marta, chorak asr ichida esa ikki marta (biz Faxriy Hirotiy va Muhammad Qazviniiy tarjimalarini nazarda tutamiz) tarjima etilgan. Yana shuni aytish joizki, shoir asarlari bo’yicha tuzilgan, forsiyzabon o’quvchilar uchun mo’ljallangan lug’atlar Alisher Navoiy ijodiga bo’lgan qiziqishdan, adabiy ehtiyojdan darak beradi.

Shoirning adabiy-tanqidiy qarashlari shunchaki mushohadaviy xarakterda (amaliyotdan yiroq) emas, balki janr talabidan kelib chiqqan holda u yoxud bu asarida o’z aksini aniq topgan. Masalan, shoir “Badoe’ ul-bidoya” debochasida devon tuzish va g’azal janri yuzasidan tanqidiy mulohazalarini izchil bayon qilgan [Ishoqov Yo., 1983: 12]. Ushbu mulohazalar faqat o’zbek lirik she’riyatiga taalluqli bo’lmay, umumnazariy xarakterga ega. Bu xususda Yo.Ishoqov shunday yozgan: “Navoiyning devonida boshqa devonlarda bo’lmagan o’ziga xos jihat mavjud: shoir birinchi marta nazardan chetda qolib ketgan to’rtta harf (chim, je, gof, lom-alif) ga maxsus g’azallar bitgan. Navoiy bu janrga falsafiy, ijtimoiy va axloqiy masalalarni keng jalb etdi; tanqidiy, hajviy g’azallarining yetuk namunalari yaratdi. Xullas, g’azal muayyan muhit bilan bog’lanib, muhim ijtimoiy muammolarining poetik ifodasi uchun xizmat qildi”

[Ishoqov Yo., 2014: 289]. Ko’rinib turibdiki, shoirning bu boradigi mulohazalari umumsharq adabiyotining nazariy masalalarini ham to’liq qamrab oladi va bu haqda sharqshunos-adabiyotshunos M.Imomnazarov “Mahbub ul-qulub”dagi Navoiyning ijodkorlarni “haqiqat tariqi”, “majoz tariqi” tasnifiga asoslanib quyidagilarni yozadi: “Alisher Navoiy ushbu atamadan unumli foydalanib, islom mintaqada adabiyotida “haqiqat tariqi” va “majoz tariqi” deb atalmish ikki adabiy yo’nalish mavjudligini kashf etdi va ularning har birini qisqacha ta’riflab, XII va XV asarlarda yashab forsiy va turkiy tillarda ijod etgan ulug’ shoirlarning qaysi biri qaysi yo’nalishga mansub ekanligini aniq ko’rsatib berdi” [Imomnazarov M., 2015: 254].

Ma’lum bo’ladiki, Alisher Navoiy ijodiy metod borasida ham o’z qarashlarini asosli ravishda bayon etgan va bu hol uni fors adabiyotining (biz ushbu adabiyotning katta hudud bo’ylab tarqalganini nazarda tutamiz – A.E.) dastlabki tadqiqotchilaridan biri bo’lganidan dalolat qiladi. Biroq ayni shu muhim nuqta fors adabiyotini o’rgangan va o’rganayotgan tadqiqotchilar nazaridan negadir chetda qolmoqda. O’ylashimizcha, bunda navoiyshunoslarimizning ham “aybg’inasi” bor. Chunki yurtimizda yaratilgan tadqiqotlarning aksariyat qismi o’zbek tilida yoziladi hamda jonajon diyorimizdan tashqariga chiqmaydi.

Adabiyotshunosligimizda adabiy hodisa haqida so’z ketganda, gap zamonaviy adabiyotga aloqador bo’lsa, rus adabiyotining ko’rsatgan “ta’siri” bo’rttiriladi, mumtoz adabiyot tarixi borasida esa fors adabiyotining tutgan maqomiga urg’u qaratiladi. Albatta, hech bir adabiyot mahdud holda rivojlana olmaydi. U yoki bu tarzda birinchi galda qo’shni adabiyotlar bilan madaniy

aloqaga kirishadi, nimanidir oladi va o'z vaqtida beradi ham. Biroq sof individual ijod hosilasi bo'lmish badiiy asarning yaratilish jarayonini tashqi omil – adabiy ta'sir bilan bog'lash, uni mutlaqlashtirish bir yoqlama yondashuvdir. Bundan tashqari, o'rta asrlarda adabiy kanon, me'yoriy poetika asosida ijod namunalar yaratilgan (nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham) hamda adabiy an'ana yetakchilik qilgan. O'z davrida Yevropa sharqshunoslari ayni shu holatni inobatga olmagan sababli, turkiy xalqlar adabiyoti, jumladan, Navoiy ijodi fors adabiyotiga taqlid degan g'ayri ilmiy qarash paydo bo'lgan edi. Shu o'rin-da taniqli sharqshunos Ye.Bertelsning quyidagi so'zlarini esga olish foydadan xoli emas: "Fors poeziyasining behad boy xazinasi bilan biroz tanish bo'lgan kishining fors shoirlari qalamga olgan mavzular soni nisbatan kam ekanligini bilmasligi mumkin emas" [Bertels Ye., 2005: 7]. Bizning bunga diqqat qaratishimizga sabab, bugun ham turkiy xalqlar adabiyotini, xususan, Alisher Navoiy ijodini o'rganishda o'sha eski "andozalar" saqlanib turibdi. Masalan, rus sharqshunosi B.V.Norik birlamchi manbalarga asoslangan monografiyasida: "Navoiyning o'zi fors adabiyotiga nisbatan (shubhasiz, genial) taqlidchi edi. Keyingi avlod shoirlarining aksariyat qismi esa "buyuk amirga" taqlidchi bo'lganlar" - deb yozadi [Norik B., 2011: 39].

Agar bu estetik hodisani davrning ikki buyuk ijodkori Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy ijodi misolida kuzatsak, butunlay boshqacha manzaraning guvohi bo'lamiz. Ma'lumki, Navoiy "Xamsat ul-mutahayyirin" da Jomiy bilan ijodiy munosabatlari yuzasidan qimmatli mulohazalarini bildirgan, unga ko'ra shoir Jomiyning ba'zi

asarlarini yozilishiga bevosita sababchi bo'lgan hamda o'zi uning qoshida, yordamida, maslahati bilan bir qancha ilmiy adabiyotlar (asosan, irfoniy asarlar) bilan tanishgan, o'qib o'rgangan. Shoir "Muhokamat ul-lug'atayn"da bu xususda yanada aniq yozgan: "... aning musavaddasin burunrog' bu faqirga iltifot va e'tiqod yuzidin berur erdilarkim; - "Bu avroqni ol va boshdin oyog'iga nazar sol, xotiringa har ne aytgudek so'z kelsa, ayt!" – deb va harne ishorat bo'lganikim, mazkur bo'ldi, zohir qilsam, maqbul tushar erdi". Endi mavzuga bevosita aloqador "Hayrat ul-abror"da-gi ushbu misralarga nazar soling:

*Nomag'akim roqim etib xomasin,  
Ko'rmadi, men ko'rmayin, el nomasin.*

Demak, Navoiy Jomiy asarlarini birinchilardan bo'lib qoralamada o'qib, o'z fikrlarini aytgan va bu shoir tomonidan inobatga olingan. Yana shuni ta'kidlash joizki, Navoiy o'ttiz yil davomida davr adabiy jarayonining boshida turgan, shoirlar asarlarini uning nazari-dan o'tkazish ilinjida bo'lganlar: "... bu faqir suhbatiga yetkurubdilar va bu zaif olida o'tkarubdilar va hak (pardozlash ma'nosida – A.E.) va isloh iltimosin qilibdurlar...". Keltirilgan faktlar adabiy ta'sir hodisasini adabiyotshunosligimizda tubdan qayta ko'rib chiqishni hamda zamonaviy adabiyot ilmining yutuqlariga suyanan, tayangan holda qayta baholashni talab qiladi. Buning uchun esa, o'rinsiz hayajonga berilib "Navoiyga qaytish" deb bong urmasdan, navoiyshunoslik tarixini refleksiya qilish lozim. Refleksiya – bu muayyan fan tarixida yig'ilgan, to'plangan bilimlar majmuini falsafiy idrok etmoq, qayta baholamoq demakdir. Shu bilan birga, har qanday fan tarixida, jumladan, navoiyshunoslikda ham vorisiylik

an'anasining barqarorligi, bardavomligi kelgusidagi ishlar uchun muhim garov ekanligini unutmaslik lozim.

Mulohazalarimiz Alisher Navoiy adabiy-tanqidiy qarashlarining Sharq adabiyoti tarixida tutgan o'zni xususida borar ekan, muhtaram ustoz Yo'Is'hoqovning shoir lirikasi yuzasidan aytgan quyidagi so'zlariga diqqatni qaratamiz: "Demak, Navoiy lirikasi Sharq lirikasi tarixida (faqat janrlar yuzasidan olib qaraganda ham) mutlaqo yangi va yuqori bosqich hisoblanadi. Binobarin, O'rta asrlar Sharq adabiyoti haqida umumiy hukm chiqargan paytda faqat Hofiz (Gegelning estetikasiga doir leksiylarini nazarda tutmoqdaman) yoki bir necha arab va fors shoirlari mero-

sigatayanishning o'zi yetarli emas. Yo terminning ma'nosini chegaralash (izoh bilan), yo bo'lmasa turkiy poeziyaning yuqori cho'qqisigina emas, ayni zamonda Sharq she'riyatining ulkan yutug'i bo'lmish Navoiy lirikasini albat-ta nazarda tutmoq lozim" [Ishoqov Yo., 1983: 99]<sup>1</sup>.

Qisqasi, endigi vazifa "Sharq she'riyatining ulkan yutug'i bo'lmish Navoiy lirikasi"ni, uning adabiy-tanqidiy qarashlarini jahon adabiyotshunosligi sathida tadqiq qilib, buyuk shoirning umumjahon estetik tafakkuri tarixidagi maqomini belgilashdan iboratdir.

<sup>1</sup>Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi. Toshkent. 1983. 99-bet.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

M.Shayxzoda. Asarlar. 4-tom. – Toshkent. 1972. 195-bet

Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. T. 1959. 84-bet.

М. Бахтин. "Новый мир" редакцияси саволига жавоб. // Филология масалалари. 2003. 1-сон. 86-бет.

Ардашникова А.Н Рейснер М.Л. Эволюция жанра тазкере В Иране X111-X1X вв: От антологии к справочнику.// Вестник Московского Университета.серия Востоковедение 2016. № 7с.

Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi, – Toshkent. 1983. 12-bet

Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent. 2014. 289-bet.

Imomnazarov M. Navoiyshunoslikka kirish. – Toshkent. 2015. 254-bet.

Bertels Ye E. Navoiy va Attor. – Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti. 2005. 7-bet. Tarjimon Ibodulla Mirzaev.

Норик Б.В. Биобиблиографический словарь среднеазиатской поэзии (XVI-первая треть XVII) М., 2011. С. 39. Русча аслиятда: "Сам Наваи был подражателем (безусловно, гениальным) по отношению к персидской литературе. Последующие поколения поэтов по большей части явились подражателями самому "великому амиру".

Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi. – Toshkent. 1983. 99-bet.